

MAKTABGACHA YOSH DAVRIDAGI BOLALARDA O'Z-O'ZIGA ISHONCHNI SHAKLLANISHIDA OTA-ONANING O'RNI

Dilnoza Iminova

Andijon davlat pedagogika institute Maktabgacha ta'lim kafedrası o'qituvchisi

Mirfayziyeva Laylo

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada maktabgacha yosh davridagi bolalarda o'z-o'ziga ishonchni shakllanish jarayoni, uning psixologik asoslari hamda bu jarayonda ota-onaning o'rni ham alohida tahlil qilinadi. Ota-onaning oiladagi munosabatlari, farzandni qo'llab-quvvatlash, bolaning shaxsiy tanlovlari va fikrini hurmat qilish, ijobiy rivojlantiruvchi muhit yaratib berish o'ziga bo'lgan ishonch shakllanishining asosiy sharti ekanligi ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: Oila, yosh davrlar, ota-ona, E.Erikson, shaxsiy "men", bola xarakteri, A.P.Larin.

Bugungi kunda har tomonlama yetuk hamda barkamol shaxsni tarbiyalash kelajak uchun muhim poydevordir. Yurtboshimiz SH.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek "Tarbiya qancha mukammal bo'lsa, xalq shuncha baxtli yashaydi." Tarbiya avvalo oilada vujudga keladi so'ngra inson hayoti davomida shakllanib boradi, hususan ta'lim olish bilan birga tarbiya ham yonma-yon bo'ladi. Tarbiyaning birinchi muhim bosqichlari oilada shakllanib, maktabgacha ta'lim tashkilotida davom etadi. Tarbiya beruvchi ota-onalar har doim ma'suliyat bilan yondashishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Bola shaxsining rivojlanishining eng muhim bosqichlaridan biri bu - maktabgacha yosh davri hisoblanadi. Amerika psixologi E.Erikson inson umrini 8 ta davrga ajratadi va ular o'ziga xos, betakror xususiyatlarga ega deb hisoblaydi.

1-davr. Ilk go`daklik (tug`ilgandan 1yoshgacha). Bu davrda tashqi dunyoga “Ongsiz ishonch” tuyg`usi vujudga keladi. Buning asosiy sababi ota-onaning mehr-muhabbati, g`amxo`rligi va jonkuyarligidir. Agar go`dakda bu ishonch paydo bo`lmay qolsa, ona bolaga yomon munosabatda bo`lsa, voyaga yetganda umidsizlik vujudga keadi.

2-davr. Kechki go`daklik (1yoshdan 3yoshgacha). Yarim mustaqllik va shaxsiy qadr-qimmat tuyg`usi shakllanadi. Bu esa o`z tanasini boshqarish uchun keng imkoniyat yaratib, intizom, ma`suliyat, javobgarlik, hurmat tuyg`ulari tarkib topishiga zamin yaratadi. Anomal rivojlanish: ikkilanish, qobiliyatga shubhalanish, hayotga moslashmaganligini his qilish.

3-davr. Ilk bolalik(3-5yoshgacha)Bu davrda bolada asosan o`zligini tushunib yetishi, shaxsiy MEN shakllanishib borayotganligi yaqqol namoyon bo`ladi.Bola oilada, maktabgacha ta`lim tashkilotlarida o`zini ijtimoiy rollari mavjudligini, bir so`z bilan aytganda u farzand, aka, uka, do`st ekanligini tushunishni boshlaydi hayotda mavjud ekanligini boshqalargayam bildirishga urinadi. Anomal rivojlanish; insonlarga befarqlik, tashabbusning sustligi, boshqa bolalarga hasad, beqarorlik. Ontogenezda 3 yoshdan 7 yoshgacha bo`lgan davr maktabgacha yosh davri hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasida juda tez sifat o`zgarishlari bo`lishini inobatga olgan hoda 3 davrga (3-4yosh) kichik maktabgacha davri, (4-5yosh) o`rta maktabgacha davri, (6-7yosh) katta maktabgacha davriga ajratish mumkin. Bola insoniyat qolga kiritgan barcha yutuqlarni faol ravishda o`zlashtirib, egallab boradi. Aynan shu davrda bolada o'z kuchiga ishonchi shakllanadi, o'zining kuchli va zaif tomonlari haqida biladi, induvidual didning birinchi bosqichlari namoyon bo'ladi. Oilaning - bola shaxsi shakllanishi va rivojlanishida o'rni beqiyos. Har bir oilada munosabatlar turlicha bo'lib, ular takrorlanmas va uzluksizdir.Bog`cha yoshidagi bolalarga beriladigan tarbiya ularni murakkab harakatlarni o`zlashtirish elementar gigiyena, madaniy va mehnat malakalarini shakllantirish, nutqni rivojlantirish hamda ijtimoiy ahloqiy tarbiyani hosil qilish davridir. Psixolog E. Erikson shaxs hayotiy yo'lining bosqichlarini taqdim etgan: unga ko'ra go'daklik yoshining vazifasi - olamga asosiy ishonchni shakllantirish, bir-biridan ajralganlik va begonalashish

tuyg'usini bartaraf etishdan iborat. Ilk yosh vazifalari shaxsiy erkinligi va mustaqilligi uchun o'z harakatlaridan kuchli shubhalanish va uyat tuyg'usiga qarshi kurashdan iborat. Psixolog Erikson fikricha, bu har bir vazifaning yechimi ikkita oxirgi qutb o'rtasida muayyan dinamik nisbat o'rnatishga olib keladi. Shaxs rivojlanishi bu rivojlanishning keyingi bosqichiga o'tishda so'nmaydigan oxirgi imkoniyatlar kurashining natijasidir. Har bir bosqichda erishilgan muvozanatlar o'zida egotenglikning yangi shakllarini aks ettiradi va subyektni ancha keng ijtimoiy muhitga kirish imkoniyatini ochadi.

Shaxs rivojlanishining ikkinchi bosqichi E.Erikson ta'kidlaganidek, o'z avtonomligi va mustaqilligini shakllanishi hamda himoya qilishdan iborat. Mustaqillikning o'sib boruvchi tuyg'usi yuzaga kelgan olamga asosli ishonchga zarar yetkazmaslik zarur. Ota-ona tomonidan nazorat bu bolani go'yoki o'zining yangi imkoniyatlar kuchini sinab ko'rayotgandek, o'sib boruvchi istaklari, o'zlashtirish orqali saqlab qolish imkonini beradi. Mustaqillik tuyg'usining uyat va shubhaga qarshi kurashi boshqa odamlar bilan hamkorlik qilish, o'z fikrida qat'iy turish va uni cheklash qobiliyatlari o'rtasida nisbat olib keladi. Rivojlanuvchi bola har bir bosqichda o'zi uchun hayotiy muhim bo'lgan shaxsiy asoslanganlik tuyg'usiga kelish kerak va uni mas'uliyatsiz maqto'v yoki muruvvatli ma'qullash qoniqtirmasligi zarur. Shunda olamga ijtimoiy ishonch, mustaqillik, tashabbuskorlik, shaxsning yangi - yaxlitligini yaratadi deb ta'kidlaydi Erikson. Ko'pgina ilmiy psixologik adabiyotlarda keltirilganidek ushbu davrda yani maktabgacha yosh davridagi bolada o'jarlik, injiqliklar kuzatilishi uning kattalar tomonidan asosan ota-ona tomonidan qadrsizlanishiga borib taqaladi. Bola xarakterining bu sifati muhitning noto'g'ri tarbiyaviy ta'siri oqibatida biror darajada barqarorlashsa keyinchalik ko'pchilikka qaratilgan umumlashgan shaklga kira boshlaydi. A.P.Larin to'plagan ma'lumotlarga ko'ra o'jarlikning asosiy sabablari bolaning mustaqilligini cheklab qoyish erkinlik tuyg'usi tashabbusini so'ndirish va uniing ong xususiyatini (anglash sur'atini)kamsitishdan iboratligini ko'rsatadi. Agar maktabgacha yosh davridagi bolaga tegishlicha munosabatda bo'linmasa unda o'jarlik vujudga kelishi mumkin. Shu davrda bola jadal sur'atlarda rivojlanishi natijasida shôx, serğayrat, tinib tinchimas, qiziquvchan bo'lib qoladi, bu davr

inson shaxsini shakllantirishdagi eng murakkab davr desak boladi, shunga ko'ra o'zgarishlarni ota-ona to'g'ri qabul qilishi, ya'ni buni tabiiy jarayon ekanligini tushungan holda boladagi bu murakkab ichki kechinmalarning mohiyatini, psixologik inqirozlarni inobatga olgan holda munosabatda ehtiyot bo'lishi, unga ma'lum bir vazifani yuklatib bola u vazifani qay darajada, qanday usullar bilan bajarayotganini shaxsan kuzatib borishlari va albatta rag'batlantirib turishlari shart. Ota- ona tomonidan ehtiyojlari hisobga olinib ularning qondirish imkoniyatlari shakllanishiga yordam berilsa, keyingi davrga o'tish uchun psixologik tayyorgarlik ishalari amalga oshirilsa inqiroz vujudga kelmasligi ham mumkin. Shu davrda bola o'zligini anglay boshlaydi tashqi va ichki belgilari yaqqol ko'zga tashlanadi, mustaqillik tuyg'usi vujudga kelib unda xulq-atvori, yurush- turishi bilan ota-onasining maqtovini eshitish ishtiyoqi tug'iladi. Ota-onalar bunday hollarda o'zlarini osoyishta tutishlari, sharoitga qarab bolaga biroz yon bosishlari, kerakli paytda aytganlarini qildirishlari, ba'zan esa masalani ochiq qoldirishlari lozim, chunki shaxslararo munosabatning ba'zan muammoligicha qolishi ham maqsadga muvofiqdir. Lekin bu bilan bolani nazoratsiz qoldirish kerak degani emas, e'tiborsiz qoldirish, nazorat qilmaslik bolani qattiq iztirobga soladi unda tanholik tuyg'usini, umidsizlik, begonasirash hissini vujudga keltiradi. Bular esa bolada ota- onaga nisbatan ichki qarama -qarshilikni o'zaro ziddiyatni, nizo alomatlarini keltirib chiqaradi. Odatda har qanday tafakkur jarayoni biror narsadan taajublanish, hayron qolish va natijada turli savollarning tug'ilishi tufayli paydo bo'ladi. Ko'pgina ota-onalar bolalar ortiqroq savol berib yuborsalar "ko'p mahmadona bo'lma", "sen bunday gaplarni qayerdan o'rganding", deb koyib beradilar. Natijada bola o'ksinib, o'zi bilganicha tushunishga harakat qiladi. Ayrim tortinchoq bolalar esa hech bir savol bermaydilar. Bunday bolalarga turli mashg'ulotlar va sayohatlarda ota -onalarining o'zlari savol berishlari va shu bilan ularni faollashtirishlari lozim. Bola xato qilishdan qo'rqmasligi, tengdoshlari bilan muloqotda faol bo'lishi o'ziga bo'lgan ishonchni oshirib mustaqil fikrlashga undaydi..

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha yosh davrdagi bolalarda o'z o'ziga ishonchni shakllantirishda ota-onaning o'zni beqiyos. Maktabgacha yosh davridagi bolalarda

kechadigan psixologik inqirozlarni inobatga olgan holda vaziyatni to`gri baholab farzandiga yordam berishi muhim. Ota-onaning bolaga mehrli, hurmatga asoslangan va qo`llab quvvatlovchi munosabati bolaning ijobiy “MEN” obrazini shakllantiradi. Bolani tengdoshlari bilan taqqoslash emas, balki uning individual imkoniyatlaridan kelib chiqib yutuqlariga e`tibor qaratish kerak. Eng muhim omillardan biri esa oilada ota-onaning sog`lom munosabatlari, o`zaro hurmat, tinchlik, mehr-muhabbat, e`tibor oiladagi har bir insonni erkin fikrlay olishi, shaxsiy tanlovlar qila olishi bularning barchasi nafaqat bolada o`ziga ishonchni oshiradi balki bunday muhitda tarbiyalangan bola ham ruhan, ham jismonan yetuk bo`lib yetishishi, shuningdek kelajakda mustaqil qaror qabul qila oladigan ijtimoiy faol va psixologik jihatdan sog`lom shaxs sifatida voyaga yetadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. Z.T.Nishonova, N.G.Kamilova, D.U.Abdullayeva, M.X.Xolnazarova-Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya. "O`zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" Toshkent-2018
2. G`oziyev.-Psixologiya(yosh davrlar psixologiyasi)."O`qituvchi"Toshkent-1994
3. D.B.Botirova-Yosh davrlar pedagogik psixologiyasi.Toshkent-2021